

AHOLI SONINING HADDAN ZIYOD OSHIB KETISHI MUAMMOSI DEB: UNING OQIBATLARI VA HAL QILISH USULLARI

Anorboyev Alisher Abrorovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “xalqaro huquq” fakulteti 1-bosqich talabasi
anorboyevalisher70@gmail.com

Qobiljonova Durdona Zafarjanovna

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn institute 1-bosqich talabasi
qobiljonovadurdona6@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy insoniyat oldida turgan dolzarb global muammolar qurg'oqchilik, qashshoqlik va iqtisodiy tengsizlik, terrorizm hamda yadro urushi xavfi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Ushbu muammolarning asosiy omillaridan biri sifatida aholi sonining haddan tashqari ko'payib ketishi ko'rsatilib, uning turli ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlari ochib berilgan. Tadqiqotda qurg'oqchilikning tabiiy va antropogen sabablari, qashshoqlikning kelib chiqish omillari hamda global xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Birlashgan millatlar tashkiloti, qurg'oqchilik, qashshoqlik, globallashuv, terrorizm, yadro urushi, transpiratsiya, iqtisodiy tengsizlik, aholi sonining haddan tashqari ko'payishi, global muammolar, resurslar tanqisligi, atrof-muhit ifloslanishi, barqaror rivojlanish, xalqaro hamkorlik*

Annotation: *This article provides a comprehensive analysis of the pressing global challenges facing modern humanity, including drought, poverty and economic inequality, terrorism, and the threat of nuclear war. It identifies excessive population growth as one of the key underlying factors contributing to these issues and examines its various socio-economic and environmental consequences. The study scientifically explores the natural and anthropogenic causes of drought, the factors leading to poverty, and the elements posing a threat to global security.*

Keywords: *United Nations, drought, poverty, globalization, terrorism, nuclear war, transpiration, economic inequality, excessive population growth (EPG), global problems, resource scarcity, environmental pollution, sustainable development, international cooperation.*

Аннотация: *В данной статье комплексно анализируются актуальные глобальные проблемы современного человечества, такие как засуха, бедность и экономическое неравенство, терроризм, а также угроза ядерной войны. В качестве одного из основных факторов данных проблем рассматривается чрезмерный рост численности населения, и раскрываются его социально-экономические и экологические последствия. В исследовании на научной основе освещаются природные и антропогенные причины засухи, факторы возникновения бедности, а также угрозы глобальной безопасности.*

Ключевые слова: *Организация Объединённых Наций, засуха, бедность, глобализация, терроризм, ядерная война, транспирация, экономическое неравенство, чрезмерный рост численности населения, глобальные проблемы,*

дефицит ресурсов, загрязнение окружающей среды, устойчивое развитие, международное сотрудничество.

Hozirgi vaqtda insoniyatga xavf solib turgan bir nechta jiddiy muammolar mavjud. Qurg'oqchilik, qashshoqlik va tengsizlik, terrorizm va yadro urushi xavfi hal qilinishi kerak bo'lgan eng oldi masalalardir. Yuqorida nomlari keltirilgan masalalar aholi sonining haddan ziyod ko'payib ketishi (keyingi o'rinlarda ASHZKK tarzida beriladi) natijasida kelib chiqqan muammolar sanaladi va turli xil oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dastlab yuqorida nomlari keltirilgan muammolar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Qurg'oqchilik dunyoning ko'plab mintaqalariga ta'sir qiluvchi global¹ muammodir. Qurg'oqchilik tabiiy omillar va inson faoliyatining qorishmasi tufayli yuzaga keladi. Buning bir nechta sabablari mavjud: iqlimning tabiiy o'zgarishi, ya'ni atmosfera aylanishining o'zgarishi tufayli yog'ingarchilik shakllari o'zgaradi va uzoq vaqt davomida yog'ingarchilikning kamayishiga sabab bo'ladi; o'rmonlarning kesilishi suv aylanishiga ta'sir qiladi, chunki daraxtlar va o'simliklar transpiratsiya² yordamida namlikni yutadi va qayta chiqaradi hamda bu orqali suv aylanishini tartibga solishda katta rol o'ynaydi; inson faoliyati ham qurg'oqchilikning paydo bo'lishiga va rivojlanishiga hissa qo'shadi, bunga yer osti suvlarini haydash yoki sug'orishning samarasiz usullaridan foydalanish oqibatida suv manbalarini kamaytirib yuborishni misol qilib olishimiz mumkin.

Qurg'oqchilik qishloq xo'jaligi, ekotizimlar³ va inson hayoti uchun jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Qurg'oqchilikni to'liq bartaraf etish juda mushkul va deyarli imkonsiz bo'lsada, uning ta'sirini yumshatish va suv resurslarini samaraliroq boshqarish uchun bir nechta strategiyalar⁴ mavjud: suvdan unumliroq foydalanish va tejash, bunda asosan odamlarga suvni tejash muhimligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish amalga oshiriladi; barqaror qishloq xo'jaligini tashkil etish, ya'ni suvning oziq-ovqat ishlab chiqarishga ta'sirini kamaytirish, bu strategiya qurg'oqchilikka chidamli ekin navlarini, samarali sug'orish usullarini qo'llash va tuproqni unumli saqlash texnikasini tatbiq etishni o'z ichiga oladi; suv xo'jaligi va infratuzilma, bunda asosiy e'tibor suvni boshqarishning mustahkam tizimlari va infratuzilmasini rivojlantirish orqali qurg'oqchilikni bartaraf etishga qaratilgan; Xalqaro hamkorlik – qurg'oqchilik ma'lum bir davlat oldida emas butun insoniyat oldida turgan masala, shuning uchun uni hal qilishda ham mamlakatlar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashi, texnika almashinuvini yo'lga qo'yishi muhim va oqilona yo'l sanaladi.

Ko'p asrlardan buyon qashshoqlik va iqtisodiy nomutanosiblik murakkab masalalardan biri sifatida saqlanib qolmoqda. Dunyoning ba'zi qismlarida qashshoqlikni kamaytirish bo'yicha bir nechta yutuqlarga erishilgan bo'lsa ham, ko'pchilik hali ham og'ir sharoitda yashab kelmoqda. Iqtisodiy tengsizlik ham muhim muammo bo'lib, dunyo aholisining juda kichik qismi boylikning 2/3 qismiga⁵ egalik qilmoqda. Dunyoning bunday

¹ Global-butun Yer sharini qamrab oluvchi; har tomonlama, to'liq.

² Transpiratsiya – o'simliklarning barg orqali suvni bug'ga aylantirish jarayoni.

³ Ekotizim – barcha organizmlarni o'z ichiga olgan tizim, muhit.

⁴ Strategiya – ma'lum maqsadga erishish uchun tuzilgan umumiy reja.

⁵ <https://www.visualcapitalist.com/distribution-of-global-wealth-chart/>

ko'rinishga kelishiga bir nechta sabablar va uni bartaraf qilishning ham bir qancha usullari mavjud: Qashshoqlik munosib ish o'rinlariga ega bo'lmaslik, past ish haqi va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar oqibatida yuzaga chiqishi mumkin, buni oldini olish uchun esa hukumatlar kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlashi hamda bandlik imkoniyatlarini yaratuvchi siyosat qo'llashi, shuningdek adolatli ish haqini ta'minlash va ijtimoiy himoya dasturlarini ishlab chiqishi lozim; Ta'lim sohasini isloh qilish. Sifatli ta'lim va malaka oshirish imkoniyatining cheklanganligi qashshoqlik va iqtisodiy tengsizlikni kelib chiqishiga olib keladigan omillar hisoblanadi. Hukumatlar savodxonlikni oshirishga qaratilgan siyosat yuritish orqali aholisini qashshoqlikdan saqlab qolishi mumkin. Umuman olganda, boshqa masalalar kabi ushbu masala ham xalqaro hamkorlikni va bir-biriga yordam berish siyosatini talab qiladi.

Terrorizm va yadro urushi xavfi – tinchlik, xavfsizlik va inson huquqlariga jiddiy tahdid soladigan murakkab global muammodir. Ushbu muammolarni butunlay hal qilish qiyin, ammo xavfini kamaytirish mumkin. Terrorizm va yadro urushi xavfi xalqaro hamkorlikni talab qiluvchi transmilliy⁶ muammodir. Yadro urushining xavfi va zararlari aqlbovar qilmas darajada yuqoridir. Bir vaqtda katta miqdordagi yadro qurollari ishlatilsa, juda katta hududlar vayron bo'ladi va katta hududlardagi tirik mavjudotlarning barchasi qirilib ketadi. Bundan ham xavfli jihati shundaki, eng kuchli yadroviy qurol hisoblanmish atom bombasidan bir vatda 100 tasini⁷ ishlatish Yerdagi hayotni yo'q qilishga qodir. Ushbu miqdordagi bombalar ishlatilsa Yer atmosferasini yadroviy qish⁸ qoplaydi va havo harorati keskin darajada tushib ketadi. Mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar qanchalik yaxshilanib borsa urush xavfi ham shunchalik kamayib boradi. Buning uchun esa davlatlar o'z manfaatlaridan ozgina bo'lsa ham voz kechib bir-birlariga yordam berishlari va o'zaro munosabatlarini yaxshilashlari kerak. Yadro urushi butun insoniyat uchun katta tahdid hisoblanadi va buni mamlakatlar liderlari to'g'ri tushunib siyosat olib borsalar katta mablag' talab qiladigan qurollanish poygasiga ham barham berishlari mumkin.

Aholining haddan ziyod ko'payishi ma'lum bir hududdagi odamlar sonining ushbu hududdagi mavjud resurslar va yuk tashish imkoniyatlaridan oshib ketadigan vaziyatni anglatadi. Bugungi kunda ushbu hodisa butun sayyoramizda sodir bo'lmoqda, chunki hozirgi kunda Yer sharida 8 mlrddan⁹ ortiq odam istiqomat qilmoqda va bu hodisa insoniyat tarixida oldin sodir bo'lmagan. Yillik mahsulot ishlab chiqarish o'zining cho'qqisiga chiqqaniga qaramay bunday suratdagi aholi soni o'sishi jiddiy muammo hisoblanadi va bir nechta yomon oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin: Aholining haddan tashqari ko'payishi suv, oziq-ovqat, energiya va yer kabi tabiiy resurslarga ta'sir o'tkazadi hamda ushbu resurslarning kamayishi, atrof-muhitning buzilishi va cheklangan resurslar uchun raqobatning kuchayishiga olib keladi. Buni oldini olish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalarini, samarali qishloq xo'jaligi g'oyalarini ishlab ishlab chiqish talab qilinadi; Shuningdek atrof-muhitga ham jiddiy ta'sir o'tkazadi, ya'ni o'rmonlarni kesishni

⁶ Transmilliy- o'z chegaralaridan tashqarida ham faoliyat yuritish, ta'sir o'tkazish.

⁷ <https://nypost.com/2018/06/15/it-would-only-take-100-nuclear-weapons-to-destroy-society/>

⁸ Yadroviy qish- atom bombasining bir vaqtda juda ko'p ishlatilishi oqibatida Yer atmosferasini qalin bulutlar qoplashi va havo haroratining keskin tushib ketishi.

⁹ <https://www.theworldcounts.com/challenges/planet-earth/state-of-the-planet/world-population-clock-live>

yanada jadallashtirish orqali ifloslanish va iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolar kelib chiqadi. Buni oldini olish uchun esa issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va biologik xilma-xillikni¹⁰ himoya qilish talab qilinadi. Shu narsani inobatga olish kerakki, aholining haddan tashqari ko'payib ketishiga qarshi kurashish barqaror rivojlanish amaliyotlarini, ijtimoiy imkoniyatlarni kengaytirishni o'zida mujassam etgan keng qamrovli va ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Yuqorida keltirilgan yechimlar esa to'g'ri yo'l bilan muammoni hal qilishga yordam beradi.

Tahliliy qism :

Yuqorida keltirilgan tezislar yordamida ushbu muammolar yuzasidan turli xil tahlillar o'tkazildi va quyida ular batafsil yoritilgan:

Dastlab aholi sonining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi bo'yicha SWOT tahlil amalga oshirildi.

Strength (kuchli tomonlari) :

1. ASHTKK iqtisodiy o'sishga olib boradi. Ya'ni aholi soni oshishi sari iste'mol talabi ham oshib boradi, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va yangi bizneslar uchun shart-sharoitlar yaratishga zamin yaratadi. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha yillik nominal GDPning¹¹ o'sish suratlari 5 % ni¹² tashkil etmoqda va ishchi kuchi soni ham ko'paymoqda.

2. Yana bir kuchli tomonlaridan biri bu texnologik jihatdan yanada rivojlanish. Aholi soni oshib borar ekan yanada kuchliroq va samaraliroq texnikalarga bo'lgan talab ham oshadi. Natijada yildan-yilga yangi va kuchliroq texnologiya turlari ishlab chiqariladi.

3. Madaniy almashinuv va bag'rikenglik. Aholi soni ko'payib borib bilan zichlashuv ham ortib boraveradi va natijada turli dinlarga va madaniyatlarga tegishli bo'lgan odamlar yanada yaqinroq joylashadi. Turli madaniyatlar, tillar va urf-odatlar bilan tanishish ijtimoiy hamjihatlilikni kuchaytiradi.

Weakness (zaif tomonlari) :

1. ASHTKKning birinchi va eng muhim zaif tomonlaridan biri bu resurslarning yetishmasligi hisoblanadi. Qanchalik texnologik va ijtimoiy jihatdan yutuqlarga erishilmasin Yer sayyorasidagi resurs miqdori cheklangan va aholining hozirgi darajasidagi o'sish(yiliga deyarli 1%)¹³ katta miqdor hisoblanadi.


2. Atrof – muhitning ifloslanishi: ushbu masala yuqoridagi muammoga o'xshash hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor atrof-muhitga qaratilgan. Insonlar soni qanchalik ko'p bo'lsa atrof-muhitga shunchalik ko'p zarar yetkaziladi. O'rmonlar ko'p kesiladi, suv va havo ifloslanadi hamda biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'rmonlarning kesilishi juda salbiy oqibatlariga olib keladi. Xususan, kislorod yetishmasligi, havoning yomonlashishi va oziq-ovqat mahsulotlarining kamayishiga sabab bo'ladi. Shuningdek aholi qanchalik ko'p bo'lsa suvga bo'lgan talab ham shuncha yuqori bo'ladi. Suvning ko'p miqdorda ishlatilishi esa ham iqtisodiy, ham tabiiy zarar va xavf hisoblanadi. Chuchuk suv kamaygani sari katta hududlar sho'rxok yerlarga va bepoyon cho'llarga aylanadi.

¹⁰ Biologik xilma-xillik- tirik organizmlarning o'ziga xosligi va uni saqlab qolishni bildiradi.

¹¹ <https://www.investopedia.com/terms/n/nominalgdp.asp>

¹² <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG>

¹³ <https://www.macrotrends.net/countries/WLD/world/population-growth-rate>



Yuqoridagi diagrammada¹⁴ yillik o'rmon kesilish darajasi ko'rsatilgan. Unga ko'ra 2021-yilda ushbu ko'rsatkich so'ngi yillardagilari orasida eng yuqorisi bo'lgan.

Opportunity (imkoniyat) :

1. ASHTKKning imkoniyatlaridan biri bu yanada ko'proq ishchi kuchi imkoniyatlariga ega bo'lish. Ya'ni bir ish o'rnini uchun qanchalik ko'p odam soni to'g'ri kelsa shunchalik raqobat kuchli bo'ladi va ishchi kuchining sifati ham ancha yuqori bo'ladi. Bu holat esa kadrlar yetishmasligi, ixtisosligi bo'lmagan ishchining qabul qilinishi oqibatida yuz beradigan sifatsiz tovar ishlab chiqarish va sifatsiz xizmat ko'rsatish kabi muammolarning oldini olinishiga yordam beradi. Dunyo miqyosida yillar mobaynida ish bilan ta'minlangan aholi soni muntazam oshib kelayotgan edi. 2019-yil oxirida Xitoyda boshlangan Covid-19 virusi¹⁵ oqibatida so'nggi 3 yilda ish bilan ta'minlangan aholi sonida pasayish yuz berdi. Aynan 2019-yilda ushbu ko'rsatkich cho'qqisiga chiqqan edi. Ya'ni 3.3 mlrd (salkam 43 foiz aholi)¹⁶ odam ish o'rniga ega edi. O'sha yilda Yer yuzidagi aholi soni 7.7 mlrd¹⁷ kishi bo'lgan.

2. Yana bir imkoniyat bu bozorning kengayishidir. Ya'ni ko'p aholini mahsulot bilan ta'minlash uchun albatta kattaroq bozor kerak bo'ladi. Bozor kengayishi sari mamlakatlar ichida tovar-pul aylanishi yanada rivojlanadi. Shuningdek biznes va investorlarni jalb qilish ham kuchayadi. Bu esa iqtisodiy faollikni yanada oshirishga ijobiy hissa qo'shadi.

Threat (xavf) :

1. ASHTKKning eng katta xavflaridan biri bu aholining qashshoqlashuvi, ijtimoiy tartibsizlik, mojarolar va iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi. Resurslarning tanqisligi tufayli aholining ko'payib borishi sari qashshoqlik darajasi oshadi va daromadlar tengsizligi¹⁸ kuchayadi. Och qolgan aholi esa ilojsizlikdan o'g'rilik qiladi va jamiyatda mojarolar miqdori oshadi.

2. Yana bir xavf bu sog'liqni saqlash bilan bog'liq. Aholi soni ko'paygani sari zichlik ancha ortadi. Odam zich bo'lgan joyda esa tozalikni saqlash qiyin bo'ladi va tozalik saqlanmagan joylarda turli-xil kasalliklar kelib chiqadi. Odam zich joylashgan joylarda esa kasalliklar ham tez tarqaladi. Ularni davolash esa ham jismoniy jihatdan, ham moliyaviy

¹⁴ <https://www.bbc.com/news/59136545>

¹⁵ https://www.who.int/health-topics/coronavirus#tab=tab_1

¹⁶ <https://www.statista.com/statistics/1258612/global-employment-figures/>

¹⁷ <https://www.statista.com/statistics/805044/total-population-worldwide/>

¹⁸ <https://data.oecd.org/inequality/income-inequality.htm>

jihatdan deyarli imkonsiz. Aholi zichlik darajasi 2022 – yil holatiga ko'ra har 1 km kvadrat hududga 60 kishi to'g'ri kelmoqda.¹⁹

Shuningdek, Aholi sonining haddan ziyod oshib ketishi muammosining qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilish uchun Afrika mamlakatlari misolida Event tahlil amalga oshirildi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan yangilanishlarga qaramay, haliyam Afrikaning ko'plab mamlakatlaridagi demografik holat haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Afrika mamlakatlarining yillik o'sish suratlari juda yuqori bo'lib, yashash sharoitlari unchalik sifatli emas. Ma'lumotlarga qaraganda Afrikada aholi o'sish surati yillik 3 foizni tashkil etmoqda. 1950-yillarda Afrika aholisi 220 million bo'lgan bo'lsa, hozirda 650 milliondan oshdi. Shu tezlikda 2025-yilga borib ushbu ko'rsatkich 1.5 milliardga yetishi kutilmoqda.²⁰ Afrikadagi resurslar va yer maydonining hajmidan kelib chiqsak ushbu miqdordagi aholi normal holat deb qaralishi lozim.

Ammo ushbu qit'adagi aksariyat aholi ichimlik suvi yoki shu kabi yashash muhim bo'lgan resurslar u yoqda tursin doimiy turar joyiga ham ega emas. Internet yoki shu kabi zamonaviy hayot belgilarini aytmasa ham bo'ladi. Shimolda joylashgan Misr va Marokash kabi davlatlarda ahvol yaxshi bo'lishi mumkin, ammo ushbu mamlakatlar Yevropa sivilizatsiyasi va Arab mamlakatlari ta'siri asosida rivojlandi. Materikda foydalanish mumkin bo'lgan juda katta miqdordagi tabiiy boyliklar mavjud. Muammoning yechimini topishdan avval uning sababini aniqlash lozim. Buning uchun esa tarixga nazar tashlash kifoya.

Afrikaning ko'plab mamlakatlari ko'p asrlardan buyon mustamlakachilikda hayot kechirishgan. Buning oqibatida rivojlanish kuzatilmagan, doimiy ravishda aholi qulga aylantirilgan, korrupsiya o'zining eng cho'qqisida turgan va aholi ushbu voqeaga uzoq muddat sodir bo'lganligi uchun ko'nikib qolgan. Buning oqibati bo'laroq bugungi kunda ba'zi Afrika hududlarida qabila-urug'chilik tuzumlari saqlanib qolgan. O'tgan asrning 60-70-yillarida ko'plab Afrika davlatlari mustaqillikka erishgandan so'ng juda qiyin davrga duch kelib qoldi.

Mamlakat aholisi hukumatni shakllantirishi, valyuta belgilashi va turli xil vazirliklarni tuzish kabi qiyinchiliklarga duch keldi. Ushbu vazifalar bilan shug'ullanadigan savodl odamlar juda ham kam bo'lgan. Chegaralarning sun'iyliigi va hukumatning korrupsiyaga botib qolganligi uchun aholi har qanday yo'l bilan o'z kunini o'zi ko'rishga majbur bo'ldi. Ko'pchilik aholi ovchilik bilan shug'ullana boshlandi. Bu esa bir nechta noyob hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Ushbu holat deyarli bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Bir so'z bilan aytganda Afrikada mehnatga layoqatli odam yetarli emas, tug'ilish darajasi yuqori, o'lim yoshi juda ham kichik va kasalliklar son-sanoqsiz.

Aholiga xizmat ko'rsatish sifati haqida gapirsa ham bo'laveradi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish global hamkorlikni talab qiladi. Chet el mamlakatlari yordamida birinchi navbatda davlatlarda infratuzilma shakllantirish kerak. Aholini sifatli hayot resurslari bilan ta'minlash, savodxonlik darajasini oshirish uchun maktablar qurish va

¹⁹ <https://ourworldindata.org/grapher/population-density>

²⁰ <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/12283847/>

tabiiy boyliklaridan samarali foydalanish tizimini qurish ham juda muhimdir. Ushbu masalalar hal qilinsa yashash sharoitlari yetarli darajada yaxshilanadi va boshqa muammolar ham asta-sekin hal qilinadi.

Ammo bunga erishishning o'ziyam juda murakkab holat hisoblanadi va yuqorida aytilganidek katta darajadagi xalqaro hamkorlikni talab qiladi, zotan mamlakat yolg'iz o'zi rivojlanishga erishishi deyarli imkonsizdir.

Aholi sonining oshib ketishi muammosi jiddiy ta'sir ko'rsatgan va uni hal qilishga urinayotgan mamlakatlardan biri bo'lmish Xitoy misolida case tahlil amalga oshirildi:

1980 – yilda Xitoyda “bir oilaga bir farzand”²¹ siyosati e'lon qilingan edi. 1980-yilda Xitoyda aholi 980 mln²² atrofida bo'lgan. O'sha davrda mamlakat resurslari taqchilligi tufayli hukumat ochlik va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni oldini olish maqsadida ushbu siyosatni joriy qilgan edi. Bu siyosat qoidasiga muvofiq har bir oila qonuniy bitta farzandga ega bo'lishi mumkin edi. Lekin oradan yillar o'tgach vaziyat o'zgardi va 2013-yilda qoidaga o'zgartirish kiritildi. Ya'ni agar birinchi farzand qiz farzand bo'lsa yoki ota-onalardan biri yagona farzand bo'lgan bo'lsa, ikkinchi farzandga ham ruxsat berildi. 2016-yilda “bir oilaga bir farzand” siyosati bekor qilindi. Chunki ushbu davrga kelib mamlakatda aholining sezilarli qismini 65 yoshdan katta insonlar tashkil etar edi. Ustiga-ustak mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari yildan-yilga rivojlangan va ishchi kuchiga bo'lgan talab ham oshib boravergan. Yuqoridagi masalalarni inobatga olgan holda Xitoy hukumati ushbu siyosatni bekor qilgan.

Bundan tashqari, ushbu masala yuzasidan boshqa odamlarning fikrini o'rganish maqsadida so'rovnomalar o'tkazildi. Aholi sonining haddan ziyod oshib ketishi muammosi yuzasidan mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar “Delphi usuli”da tahlil qilindi va quyidagicha natijalar olindi:

So'rovnomada quyidagi savollar berildi:

Aholi sonining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi hozirgi kunda aynan qaysi mintaqalarda dolzarb deb hisoblaysiz?

Aholining haddan tashqari ko'payib ketishi tabiiy resurslarning kamayishiga qay darajada ta'sir qiladi deb o'ylaysiz?

Aholining haddan tashqari ko'payishi inson zich joylashgan hududlarda ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi deb hisoblaysizmi? Aholining o'sishini davlat o'z nazoratiga olishini qay darajada tog'ri deb o'ylaysiz?

Aholi sonining haddan ziyod ko'payib ketishi ekologik muammolarning yanada jiddiylashishiga va yangilarining paydo bo'lishiga hissa qo'shadi deb hisoblaysizmi?

Sizningcha aholining haddan tashqari ko'payib ketishi oxir-oqibat oziq-ovqat uchun urushning boshlanishiga va iqtisodiy tengsizlikning kuchayishiga olib keladimi?

Mutaxassislardan ushbu savollar yuzasidan quyidagicha javoblar olindi:

Aholining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi umumjahon muammosidir, lekin aynan ma'lum bir mintaqalar haqida so'z borar ekan, bugungi kunda Afrika va Osiyo mintaqalarida ushbu muammo boshqalariga qaraganda ancha dolzarb. Chunki ushbu

²¹ <https://www.bbc.com/news/world-asia-china-34667551>

²² <https://www.statista.com/statistics/263765/total-population-of-china/>

mintaqalarda aholining zichligi ham yuqoriroq (Aholi zichligi yuzasidan 2023-yil holatiga ko'ra mamlakatlar reytingi) ²³. Ayniqsa Osiyodagi Xitoy va Hindiston, shuningdek Afrikadagi Nigeriya va Efiopiya singari davlatlarda ushbu muammo jiddiy. Chunki aholi ushbu hududlarda juda ham zich, resurslar esa cheklangan, ayniqsa, Afrika mamlakatlarida ahvol og'ir.

Aholining haddan tashqari ko'payib ketishi tabiiy resurslarning kamayishiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Chunki aholi ko'paygani sari suv, haydaladigan yerlar va qazib olinadigan yoqilg'i kabi resursga bo'lgan talabni nihoyatda oshirib yuboradi. Buning oqibatida suv tanqisligi muammosi asosiy o'ringa chiqadi. Suv tanqisligi hozirgi vaqtda juda dolzarb muammo hisoblanadi. Agar aholi sonida o'sish shu darajada yuqori bo'ladigan bo'lsa ushbu muammo tasavvur qilish qiyin bo'lgan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, aholi ko'payar ekan ularga yashash uchun ko'proq joy va uy qurish uchun qo'shimcha xomashyo kerak bo'ladi. Bu esa o'rmonlarning yanada ko'proq darajada yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Daraxtlarning katta miqdorda kesilishi suv tanqisligi keltirib chiqaradigan darajadagi muammolarga sabab bo'ladi.

Aholining haddan tashqari ko'payishi inson zich joylashgan hududlarda ta'lim va sog'liqni saqlash kabi talab yuqori bo'lgan xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Ta'lim sohasida ushbu muammo yuzasidan kelib chiqadigan oqibatlar: o'qituvchilar va o'quv materiallarining yetishmasligi, sinfxonalarning tanqisligi hamda o'quvchilarning bir sinfda gavjum bo'lishi va buning oqibatida o'quvchilarning sifatsiz ta'lim olishi. Sog'liqni saqlash sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar: shifokorlarning va davolash ishlarini olib borish uchun xonalarning yetishmasligi, aholi juda zichligi bois yuqumli kasalliklarning juda tez tarqalishi. Umuman olganda ushbu muammolarni bartaraf etishga qo'shimcha maktab va shifoxolarni qurish yordam berishi mumkin, lekin bu katta sarmoyani talab qiladi.

Aholi o'sishini davlat o'z nazoratiga olishi juda murakkab va munozarali masala hisoblanadi. Hukumatlar ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda aholining o'sishini nazoratga olishlari mumkin. Ammo ushbu siyosatning qay darajada to'g'ri deb hisoblanishi axloqiy va madaniy nuqtai nazarga bog'liq. Ushbu siyosatning bir nechta foydali jihatlari mavjud: cheklangan resurslardan samaraliroq va barqarorroq foydalanish imkoniyati, ishsizlik darajasi va qashshoqlikning ko'payib ketishini oldini olish, ekologik muammolarning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik. Biroq yuqorida aytilganidek ushbu siyosatni qo'llash inson huquqlari, axloqiy va madaniy mezonlarga qarshi bo'lishi mumkin.

Aholi sonining haddan tashqari ko'payishi bir nechta ekologik muammolarga sabab bo'lishi mumkin: qayta ishlanmaydigan chiqindilarning ko'payishi tufayli suv va havoning zararlanishi, yuqori energiya iste'moli tufayli iqlimning o'zgarishi va biologik xilma-xillikning yo'qolish xavfi.


Aholining haddan tashqari ko'payishi odamlar o'rtasida oziq-ovqat mojarosiga olib kelish ehtimoli yuqori. Chunki oziq-ovqat uchun resurslarning cheklanganligi sababli aholi ko'paygani sari yer va suvga bo'lgan talab oshadi. Och qolgan aholi esa noiloj ovqat topish uchun ko'chaga chiqadi. Shuningdek, resurslar cheklanganligi sababli, kamaygani sari

²³ <https://statisticstimes.com/demographics/countries-by-population-density.php>


ularning narxi oshaveradi. Bu esa odamlar orasidagi iqtisodiy tengsizlikning yanada kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, aholining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi yuzasidan 20 dan ortiq ushbu masaladan xabardor bo'lgan shaxslar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi va quyidagi natijalar olindi:


1. Aholi sonining haddan tashqari ko'payishi muammosini bugungi kundagi global muammolar orasidagi eng dolzarbi deb o'ylaysizmi ?




2. Aholining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan "bir oilaga bir farzand" siyosatini qo'llab quvvatlaysizmi?




3. Aholining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosi global tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladi deb o'ylaysizmi?



4. Sizingcha aholining haddan tashqari ko'payib ketishi muammosini texnologik yutuqlar yordamida hal qilish mumkinmi ?



5. Aholining o'sishini davlat o'z nazorati ostiga olishini to'g'ri deb hisoblaysizmi ?



Qurg'oqchilik, qashshoqlik va iqtisodiy nomutanosiblik hamda terrorizm va yadro urushi infratuzilmalarning buzilishi, biogik xilma-xillikning yo'qolishi va atrof-muhitning zararlanishi kabi turli- xil oqibatlariga sabab bo'ladi. Lekin tarixdan ham shu narsa ma'lumki, aholi gavjum va ko'p bo'lgan joylarda muammolar ham jiddiyroq bo'ladi, masalan oqova tizimlarini yaxshilash, infratuzilmalarni mukammallashtirish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini to'g'ri yo'naltirish hamda resurslarning taqchilligi katta muammoga aylanadi va ko'pincha jiddiy oqibatlariga sabab bo'ladi. Yuqorida ushbu muammoga duch kelgan Afrika mamlakatlari qanday qiyinchiliklarga uchraganligi to'g'risida ma'lumot berildi. Shuningdek, ushbu muammoga boshqalarga qaraganda avvalroq duch kelgan

Xitoy mamlakatining uni bartaraf etish uchun joriy qilgan o'ziga xos siyosatining yutuqlari, kamchiliklari, mamlakatga ko'rsatgan ta'siri va oqibatlari ham yoritildi. Bu muammo nima uchun aynan hozirgi davrda dolzarbligi butun insoniyatning tarixiga bog'liq. Insoniyat paydo bo'libdiki, turli xil urushlar, tabiiy ofatlar va yashash darajasining pastligi tufayli odamlarning miqdori muammoga aylanmagan.

Lekin bugungi kundagi insonlar miqdori va yaqin kelajakda uning yanada ortishi bu katta muammodir. Yuqorida amalga oshirilgan SWOT tahlilning natijalari ham buni isbotlaydi. Zero ushbu masalaning kuchli tomonlari va imkoniyatlariga qaraganda kuchsiz va xavf tomonlari og'irroq tosh bosadi. Bundan tashqari Delphi usulida amalga oshirilgan tahlilning so'rovnomalari natijalari ham ushbu masalaning naqadar dolzarbligini isbotlaydi. Ushbu muammo o'zining ta'sirlarini hali to'liq ko'rsatganicha yo'q.

Chunki Yer yuzida ahvol har yerda har xil. Shuning uchun hozirgi kunda bu muammoni bartaraf etish yuzasidan yakuniy yohud to'liq konsepsiya ishlab chiqilmagan.

Ammo yaqin kelajakda ushbu masala og'ir oqibatlariga olib kelish ehtimoli yuqori va ushbu oqibatlarni oldini olish juda murakkab , bahsli hisoblanadi hamda global hamkorlikni talab qiladi.

Davlatlar aholi o'sishini o'z nazoratiga olish orqali yuqoridagi muammoni hal qilish imkoniyati mavjud , lekin bunday siyosat turli xil ziddiyatlarga sabab bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun birinchi navbatda mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, tabiatni asrash hamda berilgan yechimlardan to'g'ri foydalanish orqali ushbu muammolarning ta'sirini kamaytirish va barqaror rivojlanish yo'lida davom etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Chantal De Jonge Oudraat , P.J Simmons , Jessica Tuchman Mathews book 2001 y .
Managing Global Issues : Lessons Learned.
- 2.“Analysing chinese population” book
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-94-017-8987-5>
- 3.Annals Pugwash “global problems and common security” 1988 y
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-75072-4>
- 4.David Kaplan “agricultural ethics” <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-642-75072-4>
- 5.John Barrat and Michael Louw “international aspects of overpopulation”
<https://link.springer.com/book/10.1007/978-1-349-01306-7>
- 6.David Prementel “ world overpopulation”
<https://link.springer.com/article/10.1007/s10668-011-9336-2>
- 7.Albert Bartlett ” democracy cannot survive overpopulation”
<https://link.springer.com/article/10.1023/A:1006681515521>
- 8.Hiroaki Shibahara “wildlife overpopulation control”
https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-16-9625-1_15
- 9.Anthony Farrant “longevity and the problem of overpopulation”
https://link.springer.com/chapter/10.1057/9780230295100_4
10. Walter Karplus “the heavens are falling”
https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-1-4899-6024-5_10